

SAYYID ALOUDDIN MAQBARASI.

“Ichan-Qal’a” davlat muzey-qo’riqhonasi

“Ilmiy-ommaviy va madaniy oqartuv”

bo’limi mudiri: **Ro’zmetova Sharqiya**

Annotatsiya

Mazkur maqolada Xiva shahridagi Sayyid Alouddin maqbarasining tarixiy shakllanishi, me’moriy tuzilishi va madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Maqbaraning “Ichan-Qal’a” hududidagi joylashuvi, uning ziyoratgoh sifatidagi o’rni yoritiladi. Shuningdek, inshoot tarkibiy qismlari, jumladan ziyoratxona va xilxona tuzilishi hamda bezak elementlarida qo’llanilgan materiallar asosidagi sirli qoplamalarning o’rni ilmiy jihatdan ko’rib chiqiladi.

Kalit so’zlar: Sayyid Alouddin maqbarasi, “Ichan-Qal’a”, Xiva me’morchiligi, maqbara, ziyoratgoh, xonaqoh, xilxona, mayolika, gumbaz, tarixiy yodgorlik, UNESCO merosi, bezak san’ati, Markaziy Osiyo arxitekturasi.

Markaziy Osiyoning qadimiy shaharlaridan biri bo’lgan Xiva o’zining boy tarixiy va madaniy merosi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, “Ichan-Qal’a” hududi noyob me’moriy yodgorliklari bilan mashhur. Ushbu hududda joylashgan Sayyid Alouddin maqbarasi XIV asrga oid muhim diniy-me’moriy obidalardan biridir.



Maqbara “Ichan-Qal’a” arxitektura yodgorliklari ichida eng qadimiylaridan biridir. Maqbara bitta ziyoratxona va go‘rxonadan iborat. Asrlar davomida atrofida uylar ko‘payib ketganligi uchun maqbara yer sathidan past qolib ketgan. Arxeologik tekshirishlar natijasida yodgorliklarni avvalgi ko‘rinishi va tarixiga oid ko‘pgina ma’lumotlar to‘plangan. O‘tmishda yashagan tarixchi Ahmad Roziy, Xorazmlik mashhur shayxlar ro‘yxatiga Sayid Alouddinni ham kiritib uni Shayx Najmiddin Kubrodan keyin yirik shayx bo‘lgan deydi. Bu so‘zlarni xazrat Jomiy va Navoiy asarlarida ham o‘qisa bo‘ladi.

Xorazmlik Safarzoda Bobojon o‘g‘lining Xorazm avliyolari haqidagi qo‘lyozmasida shunday deyiladi, “Bu kishi XIII asrda tug‘ilgan Xorazm o‘zbeklaridandur. U yigitlik chog‘ida maktab, madrasani tugatib, maktabdorlik qilgan va masjidlarning maktabxonasida bolalarni o‘qitadurgan mulla bo‘lgan. Pahlavon Mahmudni ham maktabda o‘qitgan ustozini sanaladi”. Maqbaraning go‘rxonasida muqaddas hisoblangan ajoyib sirkor dahma joylashgan, dahma juda chiroyli yashil ko‘k va oq rangli koshinlar bilan qoplangan. Bu koshinlardagi barcha naqsh gullari bo‘rtmaligi bilan odatdan tashqari bir go‘zallik kashf etadi. Bunday koshinlar Xivada yagona bo‘lib, uning tengdoshi va o‘xshashi Ko‘hna Urganchda Shayx Najmiddin Kubro, Samarqanddagi Shohi Zindadagi Qusam ibn Abbas qabrida uchraydi. Maqbarani shayx Sayid Alouddinning shogirdi va muridi naqshbandiya mazhabining taniqli namoyandasi so‘fi Amir Kulol (1380 yilda vafot etgan va Shahrisbzda Amir Temur tomonidan dafn qilingan) qurdirgan.

Shayx 1303 yil 18 mart kuni vafot etgan. Mashhur shayxlarning qabrlari ustidagi maqbaralar davr o‘tishi bilan ziyoratgohga aylanib qolgan. Xiva xoni Olloqulixon (1825-1842) unga e‘tiqod bog‘lab, o‘z davrida uning maqbarasi ustida oliy imoratlar bino qilib anchagina vaqf yeri ajratgan. 1825 yilda maqbara butunlay ta‘mirlanib, ziyoratxonaning nuragan peshtoqining ravoqli qanotini bir oz qisqartirib qaytadan ishlangan. Ichkaridagi tokchalar berkitilgan, xona sahniga g‘isht terilib devorlar esa ganch suvoq qilingan. Devorda tush bilan yozilgan 14 misra she‘r bor bo‘lib, undagi yozuvlardan ma’lum bo‘lishicha, bino ta‘miri Olloqulixonning farmoni bilan Xubbiqulixo‘ja o‘g‘li Hamidxo‘ja boshchiligida bajarilgan ekan.

Joylashuvi va tuzilishi

Maqbara “Icha-Qal’a”ning g‘arbiy darvozasi yaqinida, Muhammad Niyoz devonbegi madrasasi ning sharqiy tomonida joylashgan.

Inshoot peshtoqli, kvadrat shaklda qurilgan bo‘lib, ikki asosiy qismdan iborat:

Ziyoratgoh (xonaqoh) – tashrif buyuruvchilar uchun mo‘ljallangan ibodat va ziyorat joyi

Xilxona – ichki, muqaddas qabr joylashgan qism

Bunday tuzilma Markaziy Osiyo maqbaralari uchun xos bo‘lgan an’anaviy me’moriy yechim hisoblanadi.

Me’moriy va badiiy xususiyatlari

Maqbaraning eng qadimiy qismi – gumbazli qabr bo‘lib, u XIV asrning birinchi yarmiga tegishlidir. Qabr ustidagi mayolika bilan bezatilgan tosh o‘zining noyobligi bilan ajralib turadi.

Bezaklarda ishlatilgan sirli qoplamalar muhim rol o‘ynagan. Bu esa ranglarning yorqinligi va mustahkamligini ta’minlagan. Natijada bezaklar asrlar davomida o‘z jozibasini saqlab qolgan.

Maqbaraning turli davrlarda qurilgan qismlari uning arxitekturasida xilma-xillikni yuzaga keltirgan. Bu esa inshootni tarixiy qatlamlar uyg‘unligi sifatida namoyon etadi.

Madaniy ahamiyati

Sayyid Alouddin maqbarasi bugungi kunda nafaqat tarixiy yodgorlik, balki muqaddas ziyoratgoh sifatida ham katta ahamiyatga ega. U UNESCO ning Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan “Ichan-Qal’a” hududi tarkibiga kiradi.

Xulosa qilib aytganda, Sayyid Alouddin maqbarasi o‘zining boy tarixi, murakkab me’moriy tuzilishi va chuqur ma’naviy ahamiyati bilan ajralib turadi. Ushbu yodgorlik

nafaqat o‘tmish madaniyatining yorqin namunasi, balki ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi. Ayniqsa, bezak san’atida qo‘llanilgan sirli naqshlar qadimgi me’morchilikning ilmiy asoslarini ochib beradi. Shu bois, mazkur obidani asrab-avaylash va o‘rganish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan manba va adabiyot.

1. <http://www.khivamuseum.uz/index.php/historical-objects/mausoleums/44-sayidalovuddin>.
2. Komiljon Xudoyberganov “Xiva dunyodagi eng ko’hna qal’a”. Toshkent 2012 yil.